

*Niyozmatov Abdullajon Anvarjon o'g'li*

*Farg'ona viloyati Furqat tumani*

*Furqat ixtisoslashtirilgan maktabi*

*ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada yozuvning ijtimoiy ahamiyati, uning kelib chiqishidagi omillar, ilmiy-nazariy talqinlari va uning turli davr, turli mintaqalardagi ko`rinishi va farqi yuzasidan so`z boradi.*

**Аннотация:** *В данной статье говорится о социальной значимости письменности, факторы её происхождения, её научные и теоретические интерпретации, а также различные периоды, явления и различия в разных регионах.*

**Annotatsion:** *This article talks about the social significance of writing, factors of its origin, its scientific and theoretical interpretations, as well as various periods, phenomena and differences in different regions.*

**Kalit so`zlar:** *Jamiyat, taraqqiyot, axborot, tafakkur, kashfiyot, tarix, tovush, belgi, og`zaki nutq, savod, alfavit, fo netika, so`z, gap, davr, ma`naviyat, vosita, avlod, tur.*

**Ключевые слова:** *Общество, развитие, информация, мышление, открытие, история, звук, характер, устная речь, грамотность, алфавит, фонетика, слово, речь, период, духовность, среда, поколение, тип.*

**Key words:** *Society, development, information, thinking, discovery, history, sound, character, oral speech, literacy, alphapet, phonetics, word, speech, period, spirituality, environment, generation, type.*

Insoniyat tarixining uzoq vaqt qa`ridan voqea-xodisalar, kishilik jamiyatining taraqqiyoti va bosqichlarini o`rganishda yozuvning ahamiyati katta hisoblanadi. Yozuv faqat axborot almashinish vositasi emas, balki insoniyat ma`naviy merosining avlodlarga yetib kelishida ulkan hissa qo`shgan tafakkur

mahsuli hisoblanadi .

Tarixdan kishilik jamiyatining sivilizatsion bosqichga ko'tarilishiga asosiy urg'u yozuv deb qaraladi. Bizga ma'lumki, kishilik jamiyati tarixi qariyb 40 ming yillik davrni o'z ichiga oladi, lekin yozuv paydo bo'lganiga esa nisbatan ko'p vaqt bo'lgani yo'q.

Yozuv-insoniyat tafakkuri yaratgan ma'naviy boyliklarni asrlardan-asrlarga, avlodlardan-avlodlarga yetkazuvchi bebaho vosita. U insoniyatning eng oliy kashfiyotlaridan biri. Yozuv-biror tilda qilingan (amalga oshirilgan) maxsus belgilar yog'indisi . Yozuv tushunchasi tilning tovush elementlari (so'z, bog'in, tovush)ni ifodalovchi belgilargina emas, balki piktografiya (lotin pictus-rasm, surat, tasviriy yozuv-yozuv turlaridan biri. Ideografiya (alohida so'zlarni ifodalovchi yozuv) shakllarini ham o'z ichiga oladi. Bular aloqa qilish belgilari yig'indisi sifatida yozuvdan ilgari belgilar ( xotira yozuv, hisoblash yozuvi va boshqalar)ga qarama qarshi qo'yilgan. Urug'chilik tuzumi davrida dastlab surat yozuvi paydo bo'ldi.

Kishilik jamiyati kichik va tarqoq oila-urug'lardan tashkil topgan davrda kishilar bir-birlari bilan faqat og'zaki nutq yordamida fikr olishgan.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida ibtidoiy jamiyat tarixini o'rganishda qo'lga kiritilgan yutuqlar, topilgan va o'qilgan (deshifrovka qilingan) juda ko'p yodgorliklar yozuvning paydo bo'lishi va tarixiy taraqqiyotini yoritish imkonini berdi. Bu davrda, asosan, to'rt guruh qadimgi yozuvlar deshifrovka qilindi:

1. Turli tildagi Misr gieroglif (yoki ieroglif)lari. Bu tur yozuvi XIX asrning 20-yillarida faransuz olimi Shampal'on tomonidan o'qilgan. XIX asrning 70-90-yillarida Evans o'qigan qadimgi Krit surat yozuvlari va Sims o'qigan Kipr yozuvi Misr surat yozuvlari tipiga kiradi.

2. Mixxat yozuvlarining turli tillari. Bu tip Yozuvlar Osiyoda qadimda yashagan qator xalqlarining tillarida ishlatilgan (shumer, assirovavilon, elam, xald, xet, fors tillariga moslashgan va boshqalar). Bu tur Yozuvlar XIX asr boshlarida deshifrovka (yozuvlar sirini ochish) qilina boshlanib, XX asrning

dastlabki o`n yilliklarida

tugallandi.

3. Somiy xalqlarda qayd qilingan va tillariga moslangan harf (tovush) yozuving eng qadimgi shakllari. Bular finikiy va Xanan Yozuvlari asosiy yodgorliklari XIX asrning 60-70-yillarida va XX asrning

20-yillarida topilgan). Ko`pchilik mutaxassislarning fikricha, qadimgi uyg`ur va o`rxun Enasoy yozuvlari ham aslida oromiy Yozuvi zaminida yuzaga kelgan. Uni XIX asrning 90-yillarida tilshunos olimlar V.Tomsen va V.Radlov deshirofrovka qilganlar

4. Yunon alfavitining qadimgi shakli va lotin alifbosining alohida variant va boshqa turli variantdagi bu yozuv turlari (frigiya, etrusk, italiy, venet kabi lahjalarini aks ettirgan turli yodgorliklar) bizgacha yetib kelgan. Bu Yozuvlar XVIII asrdayoq ilm ahliga ma`lum bo`ldi va ularning Grammatik jihatdan o`rganilishi XIX asrda

qiyosiy-tarixiy tilshunos fanining rivojiga katta yordam ko`rsatdi.

Ilk yozuv bundan 5000 yil avval paydo bo`lgan. Ilk yozuv bugungi yozuvlarimizdan butunlay farq qiladi. Quyidagi tarixiy voqea shundan guvohlik beradi. Odamlar eramizdan avvalgi 40-10 ming yillar-paleolit davrida chizilgan rasmlarni topishdi. Shun alohida ta`kidlash lozimki, qadimdan odamlarning yozuv

bilishi yoki xat savodiga qarab uning qaysi tabaqadan ekanligini ajratib olishgan.

Qadimgi xalqlar yozuvni mo`jizaviy san`at turi sifatida juda qadrlaganlar, yozuvni o`zlarining katta xudolari yaratgan deb ishonganlar. Yozuv savodsiz odamlarga mo`jiza bo`lib tuyulgan. Xat-savodli kishilar-kohinlar, mirzalar, olimlar va davlat arboblarni imtiyozli toifaga mansub deb bilganlar.

Yozuvlarning turli xalqlarda paydo bo`lish taqdiri turlicha... Bugungi kunda dunyoda yozuvning to`rt yuzga yaqin turi ma`lum. Lekin hamma yozuvning taraqqiyoti, kelib chiqishi aniqlangan emas. Har bir yozuv tizimi jonli

bo`lib, o`zgarib boradi, rivojlanadi. Yozuv tizimini o`rganish sohasida ish olib borilayotganiga ikki yuz yildan oshdi. Ayrim yozuvlarning siri to`la ochildi, boshqalari navbatini kutmoqda. Masalan, shumerlarning eng qadimgi-eramizdan oldingi to`rtinchi ming yillikning oxiri va uchinchi ming yillikning boshida yozilgan hujjatlari hamon jumboqligicha turibdi. Shumerlar jamiyat taraqqiyotining ilk bosqichidayoq ma`naviy jihatdan yuksak xalq bo`lgan. Ular yozuvning dastlabki ijodkorlaridan edilar. Afsuski, shumerlarning ancha keyinroq yozilgan xatlarigina o`qilgan, xolos.

Shu bugungi kunga qadar insoniyat kashf qilgan yozuv turlari quyidagi tiplarga bo`lingan:

- Piktografik yozuv-belgilari aniq bir ob`ekt orqali ifodalangan va unga qaratilgan.
- Ideografik yozuv-belgisi ma`lum fikrni ifodalashga qaratilgan.
- Fonoideografik yozuv-belgisi g`oya va tovushlarga qaratilgan bo`ladi.
- Logografik yozuv-belgisi aniq bir so`z yoki gapni ifodalaydi.
- Morfem yozuvi-belgisi aniq, muayyan morfemani ifodalaydi (masalan xitoy yozuvi)
- Fonetik yozuv-aniq va muayyan tovushlarni ifodalovchi yozuv turlari.
- Bog`inli (sillabik) yozuv-har bir belgi ma`lum bir bog`inni ifodalaydi.
- Xususiy bo`g`inli yozuv-Bog`inli yozuvning alohida turi bo`lib, bo`g`inli belgilarning o`zgarishi bilan unli tovushlarning ham o`zgarib borishiga asoslanadi(masalan yapon kanna yozuvi)
- Abugida yozuvi-matnida bog`inlar ma`lum bir o`zak asosida ko`rinishini o`zgartirishga asoslangan yozuv. Efiopiya yozuvi va qo`shimchalar qo`shilgandanda keyin shaklini o`zgartiradigan hind yozuvini misol tariqasida keltirish mumkin.
- Konsonant yozuv-Har xil unli tovushlar bilan kelgan va shu unilardan keying tovushlar bir xil bo`lgan so`zlarni qofiyalash usulidagi

yo'zuvlar. Yo'zuvda faqat undoshlar yo'ziladi, unlilar xatning mazmuniga qarab anglashiladi.

- Konstant vokal yo'zuv- unli hamda undosh tovushlarni bir grafema orqali ifodalanish

Markaziy Osiyodagi eng qadimgi xalqlarning yo'zuvlari mil avv. V-IV asrlarda shakllana boshlagani, ajdodlarimiz bu davrda xorazmiy, so'g'diy, baxtar tillarida yodgorliklar bitilganliklari ma'lum.

Xulosa o'rnida shuni aytilish lozimki, yo'zuvning paydo bo'lishi inson faoliyatining mahsuli bo'lib, kishilik sivilizatsiyalarining asosini tashkil etuvchi muhim vosita bo'lib qoldi. Yo'zuvning paydo bo'lishiga ibtidoiy davrda axbarot almashinuvning zaruriyligi va jamiyatning taraqqiy etib borishi, urug' jamoasi, shuningdek, tafakkur va ongning rivojlanishi, xo'jalik hayotning jadallashishi sababgina bo'lib qolmay, bu jarayonlar yo'zuvning vujudga kelishi uchun asosiy shart-sharoit va zamin hozirladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar :**

1. N.Mahmudov Yo'zuv. O'z ME. 3-jild 476-bet
2. Yakubova B. Ilk yo'zuv tarixi. //kamolot.uz/ media maqolalar// 1697-i/ k-ezuv -tarihi.htm/.
3. Ismoilov A, Madvaliyev A. Piktografiya O'z ME. Toshkent, 2004, 7-jild, 69.-B. ...
4. Реформатский А.А. Введение в языковедение, М.:Аспект Пресс, 2006. \_\_с.352 \_\_353.